



## HUDUDIY TELEKANALLARDA AXBORIY DASTURLAR MATNIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

**Nazarova Munira Yusupovna**

magnatasadbek@mail.ru

O'zJOKU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10090758>

**Annotatsiya.** Mazkur tezis axborotlashgan jamiyatda hududiy telekanallarda efirga uzatiladigan axboriy dasturlar va ularning mediamatniga qo'yiladigan asosiy talablar, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda mediamatndan oqilona foydalanish OAV uchun nima berishi haqidagi izlanishlarni o'z ichiga qamrab

Tezisdan ko'zlangan asosiy maqsad esa hududiy telekanallarda axboriy dasturlarining mediamatn imkoniyati nimalardan iborat ekanligini tasniflash hamda undan samarali foydalanishda nimalarga ahamiyat qaratish kerakligini tahlil qilib, ilmiy takliflar taqdim etishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** OAV, televideniye, hududiy telekanal, axboriy dastur, montaj, mediamatn, lavha, efir soati.

**Аннотация.** Данная тезис включает в себя исследование новостных программ, транслируемых на региональных телеканалах в информационном обществе, и основных требований к их медиатексту, их специфических характеристик, а также того, что рациональное использование медиатекста может дать средствам массовой информации.

Основная цель данного тезиса – классифицировать, в чем состоит медиатекстовый потенциал новостных программ на региональных телеканалах, проанализировать, на что следует обратить внимание при его эффективном использовании, а также представить научные предложения.

**Ключевые слова:** средства массовой информации, телевидение, региональный телеканал, информационная программа, монтаж, медиатекст, сюжет, час вещания.

**Abstract:** This thesis covers news programs broadcasted on regional television channels in the information society and the main requirements for their media text, their specific features, and what the rational use of media text can do for mass media. The opinions of leading scientists and experts on the concept of media text are presented, and the levels of using the possibilities of media text on regional TV channels are analyzed.

The main goal of this thesis is to classify what the mediatext potential of news programs on regional TV channels is, and to analyze what should be emphasized in its effective use, and to present scientific proposals.





**Keywords:** Mass media, television, regional TV channel, news program, assembly, media text, plot, broadcast hour.

XX asrning 90-yillarida O'zbekistonda hududlar bilan bog'liq ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatuvlar paydo bo'la boshladi. Mamlakatda televideniye faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, tegishlicha tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlar qilingach, 1991 yilgacha mavjud bo'lgan 7 ta telekanallar soni 2017 yilga kelib 66 tani tashkil qildi.

O'zbekistondagi televizion kanallar uchta turkumga: O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (MTRK) televizion kanallari, hududiy televizion kanallar hamda nodavlat televizion kanallarga bo'linadi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda mamlakatimizning deyarli har bir mintaqasida hududiy telekanallar faoliyat yuritib, efir soatlarining asosiy qismini yangiliklar dasturi tashkil qiladi.

Hududiy telekanallarning ahamiyati shundaki, ular sodir bo'layotgan voqea-hodisaga munosabatni hudud manfaatlari nuqtai nazaridan baholaydi. Ya'ni biror yangilik efirga uzatilayotganida, birinchi navbatda uning shu hudud aholisiga qiziqarlilik darajasi inobatga olinadi. Aynan mana shu jihati bilan ham hududiy telekanallarda efirga uzatiladigan axborotlarning markaziy telekanallardagiga nisbatan ahamiyati yuqori bo'ladi.

Qoidaga ko'ra, telekanal muxbirlari o'z hududida sodir bo'layotgan muhim voqea va hodisalarni o'rganadi, ular haqida xabar tayyorlaydi. Telekanal ijodkorlarining asosiy vazifalaridan biri ham bu yangiliklardir. Yangiliklar jurnalistikasi – bu har qanday jurnalistning axborot faoliyati sohasi bo'lib<sup>2</sup>, unda:


- dalil uni talqin qilish yoki tahlil qilishdan muhimroq sanaladi;
- hal qiluvchi rol jurnalistning lingvistik mahoratiga emas, balki axborotni qayta ishlash va uzatish tezligi bilan bog'liq bo'ladi;
- voqealar xolis va haqqoniy ravishda xabar qilinishi kerak;
- muxbirning muhim va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni his qila bilish qobiliyati va ularni ommaviy auditoriyaga o'z vaqtida yetkaza olishi, barcha ishlaridan ko'ra ko'proq qadrlanadi.

Yangiliklar lavhasining mediamatni ustida ishlashning tayyorgarlik bosqichi.

Hududiy telekanallarda efirga uzatiladigan yangiliklar hudud nuqtai nazaridan uning tomoshabinlari manfaatlari bilan bevosita bo'liq bo'lgani bois,

<sup>1</sup> Зверева Н. В. Школа регионального тележурналиста : учеб. пособие / Н. В. Зверева. - М. : Аспект Пресс, 2004. - 320 с

<sup>2</sup> Fixtelius E. Radio va televideniye jurnalistikasi asoslari. Jurnalistikaning 10 qoidasi. - T.: Sharq, 2002.





mavzuning dolzarbliligi bevosita shu mintaqa aholisi uchun qiziq va ahamiyatli masalalarni, voqea-hodisalarni qamrab oladi.

Yangiliklar bilan ishlovchi jamoaning professionalligi yangi voqea materiallarini auditoriyaga tezkor yetkazib berishdadir.

Yangiliklar lavhasini tayyorgarlik bosqichida muxbirning vazifasi – suratga olish joyiga borish, voqea joyida nimalar sodir bo'lganligi haqida aniq tasavvirga ega bo'lish, tadbir tashkilotchilari, qatnashchilari yoki voqea-hodisa ishtirokchilaridan intervyu olish, shundan so'ng, yig'ilgan ma'lumotlar asosida matn tayyorlash va uni ovozashtirishdan iboratdir.

Televizion yangiliklar lavhasini tayyorlashning o'ziga xos formulasi mavjud.

Voqea-hodisaning qahramoni, joyi, vaqti va boshqa iktimoiy-siyosiy holatlaridan qat'iy nazar uni to'g'ri tayyorlashga imkon beradigan formula mavjud.

Lavha = 1 Voqea = 1 Information sabab = 1 Hikoya = 1 Hissiyot = 1 G'oya<sup>3</sup>.

Televizion yangiliklar lavhasini tasvirga olish bosqichi esa axborot to'plashni o'z ichiga olgan asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsatadi: dalillarni yozib olish; guvohlarga, ekspertlarga va ishtirokchilarga savollar berish, ularning sinxronligini yozib olish; muhim hujjatlar va artefaktlarni topish; qiziqarli tafsilotlar va detallarni qidirish; yozilajak lavha uchun asosiy ziddiyatni aniqlash; hikoyani o'ylab topish uchun voqeaning ruhiga, his-tuyg'ulariga singib ketish<sup>4</sup>.

Televizion yangiliklar lavhasi matni ustida ishlash matni tahrirlash va montaj ketma-ketligida amalga oshiriladi:

Matni tahrirlash. Matn bosh muharrir yoki muharrir tomonidan tuzatiladi. Muharrir matni barcha mezonlarga muvofiq tahrirlashi kerak. Yangiliklar muharriri muxbirlarga nisbatan katta huquqlarga ega. U undan materialni yoki uning tuzilishini qisqartirishni talab qilishi yoki materialni umuman chiqarmasligi mumkin<sup>5</sup>.

Montaj – mediamatn yaratishning yakuniy bosqichi bo'lib, ovozli matn bilan video ketma-ketlikni sinxronlash, stend-upni ulash jarayoni nazarda tutiladi. Demak, hududy telekanallarda efirga tayyorlanadigan axboriy dasturlar mediamatni ustida ishlashda muharrirdan markaziy telekanallarda bo'lgani kabi to'rtta bosqichga muvofiq ishlash talab etiladi. Bular: Muharrir muxbirlar bilan

<sup>3</sup> Дедов А.Н. Технологии телевизионной журналистики : учебное пособие. Курган : Изд-во Курганского гос. ун-та, 2017. С - 113

<sup>4</sup> Кузнецов Г.В., Цвик В.Л., Юровский А.Я. Телевизионная журналистика: учебник. – М.: Изд-во МГУ, Высшая школа – 2002

<sup>5</sup> Кузнецов Г.В., Цвик В.Л., Юровский А.Я. Телевизионная журналистика: учебник. – М.: Изд-во МГУ, Высшая школа – 2002.





hamkorlikda yangiliklar mavzusini aniqlashi kerak. Muharrir televizion yangiliklarni tasvirga olish ishlarini to'g'ri tashkillashtirishi talab etiladi. Muharrir matn ustida ishlashda muxbir nuqtai nazarini hisobga olgan holda, o'z malakasi va tajribasidan kelib chiqib, uni tahrirlashi kerak va montaj qilingan tayyor lavhani sinchkovlik bilan tekshirishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Зверева Н. В. Школа регионального тележурналиста : учеб. пособие / Н. В. Зверева. - М. : Аспект Пресс, 2004.
2. Fixtelius E. Radio va televideniye jurnalistikasi asoslari. Jurnalistikaning 10 qoidasi. - T.: Sharq, 2002.
3. Дедов А.Н. Технологии телевизионной журналистики : учебное пособие. Курган : Изд-во Курганского гос. ун-та, 2017.
4. Кузнецов Г.В., Цвик В.Л., Юровский А.Я. Телевизионная журналистика: учебник. – М.: Изд-во МГУ, Высшая школа – 2002.

